
IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI

Prezidentimiz tashabbusi bilan Muborak Ramazon oyida butun respublikamizda bo'lgani kabi Toshloq tumanidagi mahallalarda ham xalqimizning roziligini olish, insonlar o'rtasida xayru saxovat va mehr-muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida ezgu va xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bugun "Yangi O'zbekiston Konstitusiyasi davlat birligi ramzi" shiori ostida navbatdagi iftorlik dasturxonini yozildi.

Tumandagi "Varzak" va "Qipchoqariq" mahallalarida yashovchi "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 200 nafardan ziyod kam ta'minlangan, ehtiyojmand, nogironligi bor bo'lgan fuqarolar jam bo'lgan ushbu xayriya tadbiri "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasi tomonidan o'tkazildi.

2023-04-04 08:12:29